

## ANGLIYA TA'LIM TIZIMINING TARIXI TAJRIBASIDAN YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA FOYDALANISH

*QDPI katta o'qituvchisi, (PhD) A. N. Meliboyev,  
QDPI, 1- kurs talabasi G. Muftillayeva.*

### **Annotatsiya**

maqolada bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimiga ega bo'lgan davlat angliya ta'lim tizimining tarixi tajribasidan yangi o'zbekiston ta'lim tizimini rivojlantirishda foydalanish masalalari haqida fikr mulohazalar berilgan.

**Kalit so'zlar:**Angliya, o`rta asrlar, Norton manori, Bir xillik to`g`risida, qonun, Yakshanba maktab harakati, Robert Raykes, J.Paunds, R.Gladston, U.Churchill, U.Foster, Boshlang`ich ta`lim to`g`risida qonun , Fisher qonuni.

Har qanday muvofiqiyat va g'alaba albatta davrlar mobaynida qo'lga kiritilgan tajribalar asosida erishiladi. Angliyada ta'lim sifati, darajasi bo'yicha yetakchi mamlakatlar qatorida turadi. Shu darajagacha yetgan omillar, yutuqlar, kamchiliklarga qaraydigan bo'lsak ozgina tarixga nazar solishimiz kerak bo'ladi. O`rta asrlar Angliyada ta'lim hozirgi-dan juda farq qilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida odamlar o`quv-jarayonining turli darajalarini o`z ichiga olgan juda ko`p yo`nalishlarga ega. Hozir Angliyada davlat va xususiy maktablar, kollejlari va universitetlar keng jamoatchilik uchun ochiq.O`rta asrlarda Angliyada vaziyat boshqacha edi. Faqat yuqori ijtimoiy tabaqadagi odamlar ta'lim olish imkoniyatiga ega edi. Ayollarga o`qishga ruxsat berilmagan. Shuningdek xristian dini Ta'limga katta ta'sir ko`rsatdi. O`rta asrlarda odamlar ta'lim olishdan ko`ra jangovar mahoratga ega bo`lishga ko`proq qiziqishgan. Keyinchalik Rim va german madaniyati jamiyatgata'sir qilgan davrdan keyin, cherkov odamlarni ta'lim olishgachorladi. Jamiyatda odamlar tabaqalarga bo`linganligi sababli hamma ham ta'lim olishga imkoniyatiga ega emas edi. Shu sababli aholining 5% gina o`qish va yozishni bilgan.[1] O`rta larda ta'lim pullik edi. Bu davrlarda eng ma'lumotli odamlar cherkovda ishlagan, ammo ular yakka holda yashashgan, ularning bilimlari himoya qilingan. Dehqon o`g`li o`qishining yagona yo`li xo`jayini ruxsati kerak edi. Lekin ruxsat berilmagan sababli xo`jayinlar ularni o`z o`rnida saqlamoqchi bo`lgan. Ruxsatsiz o`qitgan har qanday oila katta miqdorda jarima to`lagan. O`qish uchun dehqon xo`jayinidan yorliq olgan.Norton manorida 1300-1348- yilgacha 17 ta, Uinslon manorida 1327-1348 yillar oralig`ida 15 ta yorliq olingan. Demak, bundan shuni anglash mumkin siyosat hokimiyatdagilarning dehqonlarni o`z o`rnida saqlab qolishga harakat qilayotgan

## Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

kengaytmasi edi, chunki o'qimishli dehqon o'z xo'jayini uchun xavf tug'dirishi, u ishlar qanday amalga oshirilganiga shubha qila boshlardi. Bundan shuni ko'rish mumkinki, Angliyada orta asrlarda ta'lim boylar qo'riqxonasi edi. Ba'zi maktablarda grammatika (lotin tili) o'qitilgan. Chunki savdo tili lotin tili bo'lgan. Bu til umumiy til bo'lib o'qish yozish muhim edi [2]. Yana bir fan notiqli san'ati ritorika edi. Keyinchalik o'z o'quv dasturlariga yunon, ingliz, geografiya, tabiiy fanlarni qo'shishgan. Maktab binolari 2 xonadan: 1 xona o'g'il bolalar, 2 xona o'qituvchi uchun edi. Bahor va yoz faslida bolalar erta tongdan, to quyosh botguncha maktabda kun o'tkazishardi. U davrda monastir maktablari ham bo'lgan. U yerda Benediktin rohiblari o'qituvchilik qilishgan. Maktab Vatikan nazorati ostida bo'lgan. Maktab san'at va fanni o'rganishni istaganlar uchun jannat hisoblangan. O'qituvchilar Rim, yunon kitoblaridan nusxa ko'chirishni, Platon, Eratosfen, Aristotel, Gippokrat nazariyalarini o'rganishgan. [3] Ba'zi rohiblar fizika, astronomiya kabi fanlardan ham dars berishgan. Keyingi asrlarda ta'limda katta o'zgarishlar davri boshlanadi.

1662- yilda Bir xillik to'g'risidagi qonundan so'ng norozi akademiyalar (Bristol, Oksford) tashkil etilgan. 1692- yilda Yelizaveta Kambag'allar to'g'risida qonun ya'ni parish shogirdligi bu muntazam malakali shogirdlik tizimi ishga tushdi. [4] Tarixchi Devid Mitcher ta'kidlashicha xususiy hayriya 1640-yillarga kelib moliyaning asosiy manbasi bo'lgan va bu jihatdan Angliya zamonaviy davlatlar orasida ajralib turardi. Vaqflar doimiy bo'lib XIX asrda ham faol edi. Mulkdor elitadan tashqari savdogarlar va ruhoniylar ham ta'lim sohasidagi xayriya ishlarini qo'llab quvvatlaganlar. XIX asrning oxirgi 2/3 qismida ishlab chiqilgan milliy tizim avvalgi xayriya o'z ichiga olgan. [5] XVIII-XIX asrlarda xristian bilimlarini targ'ib qilish jamiyati 7 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan kambag'al o'quvchilar uchun xayriya maktablariga asos solgan. Ushbu maktablar boshlang'ich va o'rta ta'limning zamonaviy konsepsiyalarni ishlab chiqish uchun asos bo'ldi. Jamiyat o'qituvchilar ta'limining dastlabki ta'minlovchisi bo'lgan. Angliyada XVIII asrda Yakshanba maktab harakati tashkil

etilgan. Harakat asoschisi Robert Raykes bo'lib, 1780- yil iyul oyida Meredit xonimning uyida jarayonlar boshlangan. Eng yaxshi vqt yakshanba edi. Chunki qolgan 6 kun o'g'il bolalar fabrikalarda ishlashardi. Darslik Muqaddas kitobni o'rganish edi. [6] Keyinchalik qizlar ham qatnashdi. Rayks gazetalarda maktabning hisobini e'lon qilardi. Shuningdek Rayks bolalarga maktab jadvali asosida dars qilishni yozib qoldirgan edi. [7]

XIX asrda kambag'al bolalar uchun ham bir nechta maktablar ochilgan. 1818-yilda J.Paunds maktab ochdi. Maktabda to'lovsiz o'qish, yozish, arifmetika o'rgatishgan. [8] 1820 yilda S.Uilderspin Smitfieldda, 1839-yil J.Paunds Edinburgda, Aberdinda, 1844-

## Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

yil E.Keyerlar maktab ochishgan. Bu davrda 200 dan ortiq bepul maktablar tashkil etilgan.[9] Ta'lim tizimini bir me'yorda qo'yish Angliya bolalari uchun og'ir kechdi. Bir tomondan cherkov, bir tomondan partiyalar, holining kambag'alligi, sanoat kelishmovchiliklari XIX-XX asrlarda ko'plab ta'lim islohotlariga sababchi bo'ldi. Bir qancha jamiyatlar, assotsiatsiyalar tuzildi. Qonun va qrorlar qabul va bekor qilindi. Eng asosiy muammo bolalarning maktabga bormasligi edi. O'sha davr statistikasiga nazar tashlaydigan bo'lsak Angliya va Uelsda 4,3 mln boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning 1 mln ixtiyoriy maktablarga, 1,3 mln esa davlat tomonidan qo'llab quvvatlanadigan maktablarda o'qidi, ammo 2 mln bolalar hech qanday maktabga kira olmagan.[10] Shu asnoda R.Gladston, U.Churchill kabi vazirlar ham ta'limga jiddiy e'tibor berishga harakat qilganlar. 1870 yil U.Foster Boshlang'ich ta'lim to'g'ri-sida gi qonuni mavjud ta'minot yetarli bo'lmagan hududlarga boshlang'ich maktablar (zamonaviy tilda aytganda boshlang'ich ta'lim berish uchun ) qisman davlat tomonidan moliyalashtiril, maktablar tashkil etilishini talab qildi.[11] Bu qarorning ba'zi bo'limlari Liberal partiya ihida baxsli munozalarga aylandi. 1891 yil yana Boshlang'ich ta'lim to'g'risida gi qonun ko'rildi. Unga ko'ra har bir kishi boshiga 10 shillingacha bo'lgan maktab to'lovlari davlat tomonidan to'lanishi nazarda tutilgan va bu boshlang'ich ta'limni mutlaqo bepul qilgan. 1893- yilda Boshlang'ich ta'lim to'grisidagi qonun maktabni tark etish yoshini 11 yoshga ko'tardi, yana shuningdek imkoniyati cheklangan bolalarga maxsus maktablar yaratishni ko'zda tutdi. [12] 1897 yil ixtiyoriy maktablarga (cherkov maktablari) grantlar ajratilgan. 1899 yilda maktabni tark etish 12 keyinchalik 13 yoshga ko'tarilgan.[13] 1900 yilning aprel oyidan boshlab 10- yoshdan 15 - yoshgacha bo'lgan o'quvchilarning ta'lim beradigan oliy boshlang'ich maktablar tan olingan. 1918 yil Fisher ta'lim to'g'risidagi qonun o'rta ta'limni 14 - yoshgacha ta'lim olishni majburiy qilib qo'ydi va o'rta maktablar uchun mas'uliyatni davlatga yukladi. Birinchi jahon urushi davridagi ta'lim islohoti shu bo'ldi.

Xulosa. Ilk o'rta asrlarda ta'lim cherkov qo'lida bo'lgan bo'lsa, XIX asrdan hozirgi kungacha esa Angliya parlamenti qo'lida bo'lgan. Bugungi kunda dunyoning eng buyuk universitetlari shakllangan Aangliya ta'lim tizimi tarixi shuni ko'rsatyaptiki ta'lim olishdagi demokratik erkinliklarning to'liq hayotga tadbiiq etilishi natijasida misli kutilmagan muvofaqiyatlarni qo'lga kiritish mumkin.

### Foydanilgan adabiyotlar ro'yhati

- 1 J.Simkin September 2015 Education in the Middle Ages.
- 2 Havlidis, D.R.(2015) Medieval Education in Europe: A

Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

freedom and submission

3 Havlidis, D.R.(2015) Medieval Education in Europe: A freedom and submission

4 Aldrich, Richard(2005) [1997 in A. Heikkinen and R.Sultana (eds), Vocational Education and Apprentiships in Europe] "13-Apprenticeships in England.Lesson from History of Education Routledge. Pp. 195-205. ISBN 0-415-35892-2

Retrieved 2008-06-15

5 David Mitch, Schooling for all via financing by some: perspectives from early modern and Victorian England.

Paedagogica Historica 52.4 (2016):325

6 Robert Raikes, 1736-1811, Sunday School Movement. Believer`s Web. 17 March 2003. Retrieved 2006 -06-27

7 Moses, Montrose J.(1907) Children`s Books and Reading. New York: Mitchell Kennerly.p. 103 Robert Raikes

8 Smith, MK(2001.) Ragged Schools youth work. Retrieve 2010-07-09

9 Walvin, J(1982). A Child`s World. A social history of English childhood 1800-1914. London: Pelican. ISBN 01402238-4

10 Roy Jenkins, Gladstone: A Biography (1997), pp 231-5

11 The 1870 Education Act [www.parliament.uk](http://www.parliament.uk).

12 Allen Warren, Forster, William Edward (1818-1886),Oxford Dictionary of National Biography,(2004; online edn, 2008) accessed 26 Nov 2017

13 School Attendnce FAQ Archieved 2008-08-30 at the Wayback Machine DfES.Gov.uk.